

Xushxabar - "O'zkiyosanoat" AJ xodimi Nurxon Isxakova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

// 04.03.2025

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-o-zkiyosanoat-aj-xodimi-nurxon-isxakova-mo-tabar->



Bugun O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin qizlar qo'mitasi tomonidan 8-mart "Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Ancha yillardan buyon turli sohalarda faoliyat yuritayotgan va mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shib kelayotgan oqila, dono, jamoat ishlarida faol, qolaversa o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan ayollar ushbu mukofot bilan taqdirlanishdi.

Quvonarlisi, mana shunday yuksak e'tirof etilgan mo'tabar ayollar orasida "O'zkiyosanoat" AJ Ma'muriy xo'jalik boshqarmasi xodimasi Nurxon Isxakova ham bor.

"O'zkiyosanoat" AJ jamoasi Nurxon Isxakovani ushbu mukofot bilan qutlaydi va kelgusidagi ishlariga ulkan zafarlar, oilaviy farovonlik tilaydi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati